



O'ZBEKISTONDA KIBERXAVFSIZLIK VA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING JORIY HOLATI VA ASOSIY MUAMMOLARI

Maxmudov Mardonbek

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0002-9776-7277

m.maxmudov@kiut.uz

Annotatsiya. Internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi raqamli tarmoqlarni zamonaviy hayotning ajralmas qismiga aylantirib, kiberxavfsizlik masalasini dolzarb holga keltirdi. Tarmoq muhitida shaxsiy, korporativ va davlat miqyosidagi muhim ma'lumotlarni himoyalash zarurati tobora ortib bormoqda. Tadqiqotda ommaviy ilmiy ma'lumotlar bazalari asosida kiberxavfsizlikka oid asosiy tahdidlar, jumladan ma'lumotlar buzilishi, zararli dasturlar va fishing hujumlari tahlil qilinadi hamda mavjud himoya texnologiyalarining imkoniyatlari va cheklovlari baholanadi. Natijalar kiberhujumlarning tobora murakkablashib borayotganini va an'anaviy himoya choralarining har doim ham yetarli emasligini ko'rsatadi. Xulosa sifatida, kelajakda kiberxavfsizlikni ta'minlash integratsiyalashgan, proaktiv yondashuvlar, sun'iy intellektga asoslangan yechimlar va foydalanuvchilar xabardorligini oshirishga tayangan kompleks strategiyalarni talab etishi asoslanadi.

Kalit so'zlar: kiberxavfsizlik, maxfiylik, tarmoq, proaktiv strategiya, sun'iy intellekt, yaxlit yondashuv.

ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ И ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Махмудов Мардонбек

Ташкентский международный университет Кимё

Аннотация. Быстрое развитие интернет-технологий сделало цифровые сети неотъемлемой частью современной жизни, что обуславливает актуальность проблемы кибербезопасности. Необходимость защиты конфиденциальных персональных, корпоративных и государственных данных в сетевой среде постоянно растет. В исследовании анализируются основные угрозы кибербезопасности, включая утечки данных, вредоносное ПО и фишинговые атаки, на основе общедоступных научных баз данных, а также оцениваются возможности и ограничения существующих технологий защиты. Результаты показывают, что кибератаки становятся все более изощренными, а традиционные меры защиты не всегда достаточны. В заключение обосновывается необходимость обеспечения кибербезопасности в будущем с помощью интегрированных, проактивных подходов, решений на основе искусственного интеллекта и комплексных стратегий, основанных на повышении осведомленности пользователей.

Ключевые слова: кибербезопасность, конфиденциальность, сеть, проактивная стратегия, искусственный интеллект, целостный подход.

CURRENT STATE AND MAIN ISSUES OF CYBERSECURITY AND ECONOMIC SECURITY IN UZBEKISTAN

Makhmudov Mardonbek

Kimyo International University in Tashkent

Abstract. *The rapid development of internet technologies has made digital networks an integral part of modern life, making cybersecurity a pressing issue. The need to protect sensitive personal, corporate, and government data in the online environment is constantly growing. This study analyzes key cybersecurity threats, including data leaks, malware, and phishing attacks, based on publicly available scientific databases, and assesses the capabilities and limitations of existing security technologies. The results demonstrate that cyberattacks are becoming increasingly sophisticated, and traditional defense measures are not always sufficient. The conclusion substantiates the need to ensure future cybersecurity through integrated, proactive approaches, artificial intelligence-based solutions, and comprehensive strategies based on increased user awareness.*

Keywords: *cybersecurity, privacy, network, proactive strategy, artificial intelligence, holistic approach.*

Kirish.

Xavfsizlikni, shu jumladan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning uchun avvalo uning siyosiy, tashkiliy va huquqiy asoslari yaratiladi. Ushbu maqsadda iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi ishlab chiqiladi. Uni ishlab chiqish esa iqtisodiyot holatini ob'ektiv baholash hamda uning rivojlanish tamoyillari va tendensiyalarini prognoz qilishga asoslanadi. Buning uchun iqtisodiy xavfsizlikni belgilovchi vaziyat va holatlarda sabab-oqibatlar aniqlanadi. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni saqlash va mustahkamlashga mas'ul va javobgar davlat organlari, tashkilotlar va muassasalar belgilab qo'yiladi.

Iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xavfsizlikni ta'minlashning maqsad va vazifalari;
- ularni amalga oshirish yo'llari va usullari;
- oliy hokimiyat va mahalliy hokimiyat organlari, iqtisodiyot tarmoqlari boshqaruv tizimlari, huquq-tartibot, milliy xavfsizlik organlarining umumdavlat va hududiy darajadagi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha vazifalari;
- mavjud va potentsial xavfsizlikka tahdidlarni tahlil qilish;
- davlatning xavfsizlikni ta'minlashdagi imkoniyatlari, iqtisodiy resurslar, vosita va kuchlardan ratsional foydalanishi;
- iqtisodiy tahdidlarni bartaraf etish, ularning oldini olish va salbiy ta'sirini yumshatish yo'llari, vosita va usullari.

Iqtisodiy adabiyotlarda davlat iqtisodiy strategiyasining uch jihati va tarkibiy qismlari ajratib ko'rsatilgan:

1. Iqtisodiy xavfsizlik va mamlakat hayot faoliyati uchun muhim sohalarni himoya qiladigan milliy, davlat manfaatlarini aniqlash.

2. Shaxs, jamiyat va davlatning muhim hayotiy manfaatlariga zarar yetkazadigan iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar va xavf-xatarlarni tavsiflash. Bunda qisqa, o'rta va uzoq muddatli davrlarda davlat va ijtimoiy-iqtisodiy tizim barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar va sharoitlar aniqlanadi.

3. Iqtisodiy xavfsizlikning turli tahdidlar va xavf-xatarlardan barqaror himoyalanihini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatni shakllantirish, institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu strategiyada iqtisodiy xavfsizlik talablariga javob beradigan iqtisodiyotning mezon va parametrlari ham aniqlanadi. Iqtisodiy manfaatlar va xavfsizlikka bo'lgan tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etish hamda yumshatishning ustuvor maqsadlariga quyidagilar kiradi:

- aholi barcha ijtimoiy guruhlari va tabaqalari turmush darajasini oshirish orqali jamiyat barcha a'zolarining birdamligiga erishish;
- milliy iqtisodiyotga xususiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish, investitsion jarayonlarni faollashtirish;
- qat'iy soliq va pul-kredit siyosatini yuritish, milliy valyuta qadri va barqarorligini mustahkamlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va samarali bojxona nazorat tizimini shakllantirish;
- mamlakat fani va intellektual salohiyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash;
- mamlakat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning o'zaro aloqadorligini kuchaytirish orqali ichki iqtisodiy makonni mustahkamlash;
- xo'jalik sub'ektlarining xalqaro bozorlar va raqobat sharoitlarida mustaqilligi va erkinligini ta'minlash.

Adabiyotlar sharhi.

Kiberxavfsizlik va iqtisodiy xavfsizlik masalalari zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, davlat va korxona darajasida barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarining tezkor rivoji kiberxavfsizlikni mustahkamlashni va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashni dolzarb vazifa sifatida oldinga surmoqda (Rogers, 2016; Tursky, 2016).

Xorijiy tadqiqotchilar, jumladan Popkova (2019), Ragulina (2019) va Bohoviz (2019), rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kiberxavfsizlik va iqtisodiy xavfsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, iqtisodiy tizimlarning raqamli tahdidlarga qarshi chidamliligini oshirish bo'yicha samarali mexanizmlarini ta'kidlagan. Ilyich (2017) o'z tadqiqotida ijtimoiy-iqtisodiy tizimning ichki va tashqi muhitini xavfsizlikni ta'minlash nuqtai nazaridan tahlil qilgan va korxona darajasida xavfsizlik strategiyalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar bergan.

O'zbek olimlari ham bu sohada faol tadqiqotlar olib bormoqda. Masalan, Abulkasimov (2012) davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini, Abulqosimov, Farmonov va Sodiqov (2009) bojxona va iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi muammolarni tahlil qilgan. Shu bilan birga, Abulqasimov va Rasulov (2015) O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'llarini o'rganib, tizimdagi zaifliklarni aniqlashga e'tibor qaratgan. Abulkasimovlar va Saidaxmedova, (2016) esa korxona faoliyatidagi iqtisodiy xavfsizlik mexanizmlarini batafsil tahlil qilib, amaliy tavsiyalar bergan. Shuningdek, xorijiy olimlar Kirichenko (2020) va Helman (2022) kiberxavfsizlikning milliy iqtisodiy xavfsizlikdagi ahamiyatini ta'kidlab, strategik boshqaruv va xavf-xatarlarni oldini olish mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatganlar. Gorbunova (2022) esa davlat va xususiy sektorning hamkorlik mexanizmlari orqali kiberxavfsizlikni mustahkamlash va iqtisodiy tizimlarni raqamli tahdidlardan himoya qilish bo'yicha samarali yondashuvlarni tahlil qilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jamiyatda inson xo'jalik sub'ektlarining faoliyati ularning ehtiyojlarini qondirish va manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida amalga oshiriladi. Kishi ehtiyojlari xilma-xil bo'lib, ularning tarkibida ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar muhim o'rin tutadi. Umuman, inson ehtiyojlarini amerikalik olim A. Maslou quyidagi guruhlariga ajratgan:

1. Fiziologik ehtiyojlar, ya'ni ovqatlanish, ichimlik ichish, uxlash va boshqalar;
2. Xavfsizlik ehtiyojlari, ya'ni kasallik, qo'rqinchli vaziyatlar, qahr-ğazab, tabiiy ofatlar va boshqalardan himoyalash ehtiyojlari;

3. Ijtimoiy aloqalarga bo'lgan ehtiyojlar, ya'ni mehr-oqibat, muhabbat, biron-bir guruhga yoki oila a'zolariga birikish va boshqalar;

4. Hurmatga sazovor bo'lish ehtiyoji, ya'ni maqsadga erishish, tan olinishi;

5. O'zini namoyon etish, yuqori mavqega erishish, ya'ni o'z qobiliyatlarini namoyon etish va amalga oshirish.

Inson o'z ehtiyojlarini va ularni qondirish zarurligini anglaganida, manfaat yuzaga keladi. Manfaat esa mehnatga va faoliyatga undovchi motivatsiyani yaratadi.

Iqtisodiy manfaatlar xo'jalik faoliyatini yuritishdan ko'zlangan iqtisodiy maqsadlarni ham ifodalaydi. Iqtisodiy maqsadlar umumiy tarzda quyidagicha turkumlanadi:

1. Iqtisodiy o'sish – ko'proq miqdorda va yuqori sifatli mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish, ya'ni yuqori turmush darajasini ta'minlash;

2. To'liq bandlik – ishlashga qodir va ishlashni xohlovchi kishilarni ularga mos ish bilan ta'minlash;

3. Iqtisodiy samaradorlik – cheklangan ishlab chiqarish resurslarini minimal xarajat bilan maksimal natija olishga intilish;

4. Barqaror narx darajasi – umumiy narx darajasining keskin ko'tarilishi yoki pasayishining oldini olish, ya'ni yuqori darajadagi inflyatsiya yoki deflyatsiya holatiga yo'l qo'ymaslik;

5. Iqtisodiy erkinlik – korxona rahbarlari, ishchilar va iste'molchilar o'z iqtisodiy faoliyatlarida yuqori darajada erkin bo'lishlari;


6. Daromadlarning adolatli taqsimlanishi – aholining eng boy va eng kam ta'minlangan qatlamlari o'rtasidagi tafovutning haddan tashqari oshishiga yo'l qo'ymaslik;

7. Iqtisodiy ta'minlash – mehnatga layoqatsiz, kasal, qari, nogiron, jarohat olgan va boshqa yordamga muhtoj aholi guruhlari ijtimoiy himoya qilish;

8. Savdo balansi – xalqaro savdo va moliyaviy bitimlarda oqilona balansni ta'minlashga intilish.

Tahdid jamiyat, davlat va ularning sub'ektlari, shuningdek alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ularning manfaatlarini ro'yobga chiqarishiga to'sqinlik qiluvchi, zarar yetkazuvchi va xavf-xatar keltiruvchi omillar, shart-sharoitlar va voqeiklarni ifodalaydi.

Iqtisodiy tahdidlarni eng umumiy tarzda ichki va tashqi guruhlarga ajratib o'rganish mumkin. Tashqi tahdidlar esa geosiyosiy, tashqi-iqtisodiy va global ekologik omillar bilan tavsiflanadi (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiy tahdidlar tarkibi

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga hamda jamiyat, davlat, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga iqtisodiy tahdidlar bevosita xavf tug'diradi. Bu tahdidlar ijtimoiy takroriy ishlab chiqarishni izdan chiqarib, jamiyat hayotida qiyinchilik va tanqislik holatlarini yuzaga keltiradi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonning kiberxavfsizlik va iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi joriy holati ijobiy rivojlanish tendensiyalarini ko'rsatmoqda. Mamlakat raqamli transformatsiya jarayonlarini faollashtirgan holda, iqtisodiy sub'ektlar va davlat organlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu bilan birga, davlatning elektron hukumat tizimlari kengayib, onlayn xizmatlar va raqamli moliya platformalari orqali fuqarolar va korxonalar uchun qulayliklar yaratilmoqda. Biroq, kiberxavfsizlik va iqtisodiy xavfsizlik sohasida bir qator muammolar ham mavjud. Ularga xakerlik hujumlari, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi masalalari, ichki va tashqi iqtisodiy tahdidlar, iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanmasligi va raqamli bilimlar yetishmasligi kiradi. Shu sababli xavfsizlikni ta'minlashda yagona kompleks strategiya, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, davlat va xususiy sektor hamkorligini mustahkamlash, shuningdek, xalqaro tajribalarni faol qo'llash zarur.

Adabiyotlar/Literaturaga/References:

Абулкасимов, Х.П. (2012) Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. Ўқув қўлланма. Т.: Академија.

Абулкасимов, Х.П., Саидахмедова, Н.И. ва Абулкасимов, М.Х. (2016) Экономическая безопасность предпринимательской деятельности. Учебное пособие. Т.: Илмий-ТехникаAxboroti-Press, 168 с.

Абулқосимов, Ҳ.П. ва Расулов, Т.С. (2015) Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш йўллари. Рисола. Т.: Fan va technologiya.

Абулқосимов, Ҳ.П., Фармонов, Қ.З. ва Содиқов, А.Х. (2009) Божхона ва иқтисодий хавфсизлик. Т.: Iqtisod-Moliya.

Мирзиёев, Ш.М. (2016) Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. Халқ сўзи, 15 декабрь.

Мирзиёев, Ш.М. (2017a) Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза. Т.: Ўзбекистон.

Мирзиёев, Ш.М. (2017b) Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга мурожаатномаси. Халқ сўзи, 23 декабрь.